



UO'K: 63.632.9+633.18

QORAQALPOG'ISTON AGROIQLIM SHAROITIDA SUV VA QO'RIQ DALALAR EKINZORLARIDA RIVOJLANADIGAN ZARARKUNANDALAR TURLARI GA QARSHI KURASH TADBIRLARI

Toreniyazov Elmurat Sherniyazovich 

qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

Reymov Axmet Tolegenovich 

Sultanbaeva Fatima Arepbay qizi 

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Annotatsiya. Maqolaga Qoraqalpog'iston agrobiotsenozi sharoitida suvda ekiladigan sholi va qo'riqlikdagi kunjut o'simliklarni biotsenozida rivojlanadigan zararkunandalar turlarini aniqlash, qarshi kurash tadbirlarini tashkillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlillari kiritilgan. Sholi biotsenozining, kunjutdan ajralib turadigan o'zgachaliklari aniqlangan, tarqalgan zararkunanda bioekologiyasidagi o'ziga xos bo'lgan o'zgachaliklari ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar: Sholi, kunjut, suvda, quruqda, o'simlik, zararkunanda, suruvchilar, kemiruvchilar, bioekologik, dinamikasi, preparatlar, samaradorlik.

Abstract. The article includes an analysis of research conducted on identifying pest species developing in the biocenosis of rice and sesame cultivated in aquaculture under the conditions of the agrobiocenosis of Karakalpakstan and organizing control measures against them. The distinctive features of the rice biocenosis from that of sesame have been identified, and the unique features of the bioecology of the widespread pest have been scientifically substantiated.

Keywords: Rice, sesame, in water, on land, plant, pest, reptiles, rodents, bio-ecological, dynamics, drugs, effectiveness.

Аннотация. В статью включен анализ проведенных исследований по выявлению видов вредителей, развивающихся в биоценозе риса и кунжута, выращиваемых в водной культуре в условиях агробиоценоза Каракалпакстана, и организации мероприятий по борьбе с ними. Выявлены отличительные особенности биоценоза риса от кунжута, научно обоснованы своеобразные особенности биоэкологии распространенного вредителя.

Ключевые слова: Рис, кунжут, воде, засухе, растений, вредитель, сусущие, гразущие, биоэкология, динамика, препараты, эффективность.





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

KIRISH

Agrobiotsenozlarda ekilayotgan qishloq xo'jalik ekinlari turlariga, rivojlanish bioekologiyasiga bog'liq, ekiladigan daladagi mikroiklimning asosiy omillaridan biri, turli namlikni talab etadiganligi belgisi. Ushbu turlardan sholi o'simligi vegetatsiya davrida suvda o'suv-rivojlanadigan bo'lsa, kunjut navlari asosan qo'riq sharoitga moslashgan ekin turi hisoblanadi. Ushbu o'simliklarning vujudga keltiradigan mikroiklim sharoitlariga bog'lik biotsenozning asosiy tarkibidagi ko'plab monofag va polifag zararkunandalar turlari rivojlanadiganligi aniqlangan [2,5].

Mazkur ekinlar dalalarida poyda bo'lib olinadigan hosilning sifat va me'yoriga salbiy ta'sir etadigan zararkunandalarining agrobiotsenozning abiotik va biotik omillariga bog'lik tur tarkibini aniqlash, rivojlanish bioekologik xususiyatlarini va keltiradigan zarar mezonini belgilash bo'yicha natijali ilmiy ichlar olib borilmagan. Bundan tashqari Qoraqalpog'iston sharoitidagi ekologik jarayonlarning o'zgarishi bilan bog'lik bo'lgan sholi va kunjutning yangi turdagi zararkunandalarining poyda bo'lishi, mazkur turlarga qarshi uyg'unlashgan himoya qilish tizimini takomillashtirish taqozo etiladiganligi isbotlangan [6,8].

Qoraqalpog'iston Respublikasi sharoitidagi mavjud muammoni bartaraf etishning asosi, ekinlar turlarining o'ziga xos bo'lgan o'zgachaliklarini hisobga olib, paydo bo'ladigan zararkunandalar turlarini vaqtida aniqlab, qarshi kurash tadbirlarini mikroiklim sharoitlarini hisobga olib ilmiy asoslangan darajada ishlab chiqish, bugungi kundagi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

MATERIALLAR VA USLUBLAR

Qoraqalpog'iston agrobiotsenozidagi suvda o'sadigan sholi va quruqlikdagi kunjut biotsenoz tarkibida tarqalgan zararkunanda va entomoakarifag turlari, olib boriladigan kurash tadbirlari, tadqiqotning asosiy materiallari hisoblanadi (Y.B. Saimnazarov [6]). Ushbu dalalarda uchraydigan zararkunandalar turlarini, rivojlanish bioekologiyasi B.P.Adashkevich [1], A.I. Kas'yanov [4], usullari, zarar keltirish mezonini B.I.Tanskiy [7], qarshi kurash tadbirlari Sh.T.Xo'jaev [10,11] uslublarini foydalanib tadqiqotlar o'tqazildi. Tadqiqot tajribalari variantlarini joylashtirish va natijalarni dispersion tahlil qilish, matematik statistik ishlov berish B.A.Dospexov [3] uslubi bo'yicha bajarildi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Mazkur agroiklim sharoitida olib borilayotgan tadqiqot va kuzatuvlar natijasida sholipoyalarida tarqalgan zararkunandalardan qalqonli qisqichbaqa, leptesteriya qisqichbaqa turi lichinka, etuk zotlari nihollarning unib chiqishidan boshlab katta zarar keltiradiganligi aniqlandi. Vegetatsiya davrida qirg'oq chivini, sholi chivini, arpa minyori, sholipoya uzunburuni, shiralar turlari, sholi chigirtkasi turlari tarqalib, o'simlikning o'sib-rivojida, hosil tuplashiga salbiy ta'sir etadiganligi isbotlandi.





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

Agrobiotsenozning bugungi kundagi asosiy ekin turi hisoblangan kunjut navlari dalalarida bo'lsa kuzgi tunlam, undov raqamli tunlam, gamma tunlami, o'rgimchakkana, kunjut zlatkasi, Italiya chigirtkasi, dala qandalasi, poliz shirasi, g'o'za oqqanoti turlari, unib chiqayotgan nihollarni, vegetatsiya davrida vegetativ va generativ tanachalariga katta zarar keltiradiganligi hisobga olindi.

Kuzatuvlar olib borilgan sholi navlarida qalqonli va leptesteriya qisqichbaqa turi dalalarning 1 m² o'rtasha 4,6-7,9 dona, iyun oyi o'rtalariga borib 8,1-11,2 dona va eng kesh ekilgan dalalardagi sholipoyalarda 2,4-5,2 donagacha ko'payib, bir dalaga uch yil qatoriga sholi ekilganda 4,7-5,2 dona, to'rt va besh yilda 18,6-24,8 dona, uzliksiz sholi ekilayotgan dalada 19,6-25,9 donagacha rivojlanib zarar keltiradiganligi aniqlandi.

Mazkur agroiklim sharoitida kunjut navlari nihollar unim chiqayotgan dalalarda ko'zgi tunlamning ikkinchi, undov tarzli tunlamning birinchi avlodi qurtlari soni 1 m² dalada o'rtasha 0,6-1,2 donani tashkil qilib 12,5-29,8 % nihollarda oziqlanganligi aniqlandi. Keyingi kunlarida esa 100 ta o'simlikda 9,1-15,6 donagacha gamma tunlami qurtlari oziqlanishi hisobga olinib, vaqtida qarshi kurash tadbirlarini olib borish taqozo etiladi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Qoraqalpog'iston agroiklim sharoitida ekilayotgan sholi va kunjut dalalaridagi mikroiklim turlicha bo'lishiga bog'liq ko'plab zararkunandalar tarqalib, zarar keltiradiganligi isbotlandi. Biotsenozning o'ziga xos bo'lgan o'zgachaliklarini hisobga olib, zararkunanda turlarini, rivojlanish faolligini, qishlovdan chiqishdan boshlab nazoratga olish tavsiya etiladi. Sholi dalalarida poyda bo'lgan zararkunandalarga qarshi kimyoviy preparatlar bilan ishlov berilganda samarasi katta bo'ladiganligi aniqlandi.

Kunjut dalalaridagi tarqalgan tunlamlarga qarshi biolaboratoriyada ko'paytirilayotgan trixogramma entomofagini vaqtida tarqatib borish tavsiya etiladi. Dalalarda tarqalgan suruvchi zararkunandalardan kunjutni himoya qilish maqsadida, dastlabki avlodlari poyda bo'lishi bilan biolaboratoriyada ko'paytirilgan oltinko'zni 1:10-15 nisbatda ishlatish eng yuqori samara beradiganligi aniqlanib, barcha dalalarda berilgan ilmiy tavsiyalar asosida ishlatilganda, vegetatsiya davri oxirigacha, zararkunandalar sonini zarar keltirish mezonidan past darajasida saqlanadi.

ADABIYOTLAR

1. Адашкевич Б.П. «Биологическая защита крестоцветных овощных культур от вредных насекомых». –Ташкент: «ФАН», 1983. –С. 180-188.
2. Алёшин Е.П., Шакиров А.А. Справочник рисовода. – Ташкент: “Меҳнат”, 1989. – 81 с.
3. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. –М.: Агропромиздат, 1986. –Б. 25-110.





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

4. Касьянов А.И. Методические указания по выявлению, вредителей учету численности и хранению вредителей посевов риса. – Краснодар, 1986. – С. 3-20.
5. Отамирзаев Н.Ғ. Шолининг асосий зараркундаларига қарши кураш усуллари.// Илм-фан ва иновацион ривожланиш 2019 №3. 52-56 б.
6. Саимназаров Й.Б., Ҳушвақтов Қ.Х., Эгамназаров А.П ва б. Шолининг зараркунда ва касалликларига ҳамда бегона ўтларига қарши курашиш чора тадбирлари. – Тошкент, 2009. – 31 б.
7. Танский В.И., Левитин М.М., Павлюшин В.А., Буров В.Н. Экономический мониторинг и методы совершенствования защиты зерновых культур от вредителей, болезней и сорняков. – Санкт- Петербург, 2002. –С.15-17.
8. Торениязов Е.Ш. Хўжаев Ш.Т., Холмуродов Э.А. Ўсимликларни ҳимоя илиш, «Навруз» Тошкент, 2018. 876 б.
9. Хожамбергенов Ғ., Абыллаев Ў., Утамбетов Д. «Қорақалпоғистон худудида шоли етиштириш бўйича тавсиянома» «БИЛИМ» Нукус-2022. 40 б.
10. Хўжаев Ш.Т. Агротоксикология асослари ҳамда тадқиқот ўтказиш қоидалари. –Тошкент: «Munis design group» МЧЖ, 2018. –Б. 4-132.
11. Хўжаев Ш.Т. Қишлоқ хўжалигида пестицидларни ишлатиш ҳамда тадқиқот ўтказиш усул ва шартлари. – Тошкент: “Zilol buloq”, 2020. – 150 б.